

AHOLI TOMORQASIDA QISHLOQ XO'JALIK MAXSULOTLARINI ETISHTIRISHNI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI SHAKLLANTIRISH

Odilov Umid Abduxalimovich

Termiz Iqtisodiyot va Servis Universiteti Buxgalteriya hisobi va Statistika kafedrası
o'qituvchisi

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi tashkiloti (FAO) 2024 yil xisobotida oxirgi yigirma yil ichida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining global qiymati real ko'rinishda 89 foizga o'sdi va 2022 yilda 3,8 trillion AQSH dollarini tashkil etdi. Bunday o'sishga qaramay, qishloq xo'jaligining global yalpi ichki mahsulotga qo'shgan hissasi nisbatan o'zgarishsiz qolmoqda va qishloq xo'jaligida band bo'lgan dunyo ishchi kuchi ulushi 40% dan 20% gacha kamaydi. 2022 yilda 691 milliondan 783 milliongacha odam ochlikdan aziyat chekdi. Ushbu hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, 2015 yildan beri butun dunyo bo'ylab to'yib ovqatlanmaydigan odamlar sonining o'sishi oldingi o'n yilliklarda erishilgan yutuqlarni deyarli butunlay o'zgartirdi. Bundan tashqari, dunyo aholisining oziq-ovqat xavfsizligiga duchor bo'lgan ulushi sezilarli darajada oshdi: 25,3 dan (2019 yilgi ko'rsatkich) 29,6 foizgacha (2022 yil). Oziq-ovqat xavfsizligining tarqalishi global miqyosda pasaygan bo'lsa-da (2021 yildagi 11,7 foizdan 2022 yilda 11,3 foizgacha), hozir vaziyat ancha yomon, 2019 yilga qaraganda 180 million ko'proq odam ushbu muammoga duch kelmoqda.

Oziq-ovqat ishlab chiqarish o'sishda davom etmoqda, ammo ochlik muammo bo'lib qolmoqda. 2023 yilda dunyoda 713 milliondan 757 milliongacha to'yib ovqatlanmaydigan odam bor edi. O'rtacha ko'rsatkich (733 million) dan kelib chiqqan holda, bu 2019 yilga nisbatan 152 million kishiga ko'pdir.¹

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yilning sentyabrida "Barqaror rivojlanish bo'yicha" o'tkazilgan sammitida 2030 yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasi tomonidan qabul qilingan "Milliy maqsadlar va vazifalar belgilab olingan

Bunda 1-maqsad sifatida "Barcha joylarda aholining kam ta'minlanganlik darajasini pasaytirish" va 2-maqsad sifatida "Oziq-ovqat xavfsiligini mustahkamlash,

¹ BMT "Barqaror rivojlanish kafolatlari-2030" sammiti

ovqatlanish ratsionini yaxshilash hamda qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga ko'maklashish.²

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasida (25 yanvar 2020 yil) mamlakatimizda ilk bor kambag'allik termini, (ilgari kam ta'minlanganlar) uning ma'nosi va mohiyati bayon qilinib, kambag'allikni qisqartirish hozirda va kelajakda amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishi bo'lib qolishi ta'kidlab o'tildi. Darhaqiqat, yangi O'zbekistonning 2022-2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasida "Mamlakatda yangi ish o'rinlarini yaratish, aholi daromadlarini oshirish va shu orqali 2026 yil yakuniga qadar kambag'allikni kamida 2(ikki) barobarga qisqartirish"³, ko'zda tutilgan. O'zbekiston Respublikasida kambag'allikni qisqartirish uchun tanlangan yo'llardan biri bu kambag'l oilalarni ijtimoiy kelib chiqishidan klasifikatsiyalash orqali juda dolzarb bo'lgan axoli kambag'alligi sabablari va omillarini aniqlab olish orqali kambag'allikni bartaraf etish va bevosita amalga oshirilayotgan vazifalarni belgilab olish imkonini beradi. Axolini munosib turmish tarzini yaratish, inson o'z potensialidan to'la to'kis foydalanish, barcha axoli qatlami va jamiyat a'zosiga munisib xayot Taraqqiyot strategiyasining deyarli barcha maqsad va vazifalarini qamrab olgan holda, yuqori demografik salohiyatdan samarali foydalanish, inson qadri va milliy merosni yuksaltirish, adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, barqaror iqtisodiy o'sishni va aholi farovonligini oshirishni ta'minlashga qaratilgan. Tadqiqot metodologiyasi. Mamlakatimizda oxirgi yillarda kambag'allikni qisqartirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlarni qiyosiy tahlil qilish, ularning o'ziga xos milliy tizimga mosligini baholash, ma'lumotlarni guruhlash, monografik kuzatuv va boshqalarga asoslangan. Ma'lumotlar bazasi sifatida O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari, xukumatning qarorlari, mamlakat, tarmoqlar va sohalar bo'yicha kambag'allikni qisqartirishga qaratilgan strategiyalar, konsepsiyalar va yo'l xaritalaridan, xorij tajribalaridan, rasmiy statistika axborotlaridan keng foydalanilgan.

2019 yil da BMTning O'zbekistondagi jamoasi 2020-2025 yillarda yangi hamkorlik asoslarini loyihalashtirishga analitik asos berish uchun Umumiy Mamlakat Tahlilini (CCA) o'tkazdi⁴. Unga ko'ra O'zbekistondagi axoli ijtimoiy iqtisodiy ahvolini hisobga olgan xolda O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlanish uchun sharoitini yaxlit, istiqbolli va dalillarga asoslangan qo'shma tahlilini taqdim etadi. Unda ko'rsatilgan 17 maqsad 125 vaziva asosida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomasi va O'zbekiston Respublikasining 2022-

² Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 21.02.2022 йилдаги 83-сон қароғу

³ 01.09.2020 yildagi BMT xisoboti

2026 yillarga mo'jallangan Tarraqiyot Strategiyasi⁵ asosida kambag'allikni qisqartirish dasturi ishlab chiqildi.

Axolini kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlarini muvofiqlashtiruvchi va bevosita unga javobgar Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tashkil etildi. "Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash" vazirligi, "Oila va xotin-qizlar" qo'mitasi, "Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish" agentligi faoliyati yo'lga qo'yilib, bu tarmoqlarga xam asosiy vaziva sifatida Kambag'allikka qarshi kurashish belgilandi.

Kambag'allikni qisqartirish uchun iqtisodiy nochor, ammo mehnat qilish imkoniyatiga ega oilalar va fuqorolarni doimiy daromad manbaiga ega qilish imkoniyatini yaratish va o'z biznesini yo'lga qo'yish uchun ular tomonidan taklif etiladigan biznes loyihalarni moliyalashtirish tizimi yaratildi.

Iqtisodiy nochor va kambag'al fuqorolar biznes loyihalarini moliyalashtirish tizimni yaratishda bir qator davlat tajribalari keng miqiyosda o'rganildi va ularni erishgan natijalari asnosida yangi tizim yarayildi. 2020-2022 yillarda Prezident 35 ta Prezident farmon va qarorlari, 26 ta Vazirlar Maxkamasining qarori qabul qilindi. Shu jumladan 16.12.2021 yildagi "Axoli tomorqasida maxsulot etishtirishni moliyalashtirish mexanuzmlarini takomillashtirish to'g'risidagi PQ-54 qarori⁶ 20.12.2021 yildagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son⁷, 25.07.2022 yildagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175 farmoni⁸ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish bo'yicha davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari to'g'risida» 2021 yil 3 dekabrda PF-29-son Farmoni, «Mahallada tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish masalalari bo'yicha hokim yordamchilari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 3 dekabrda PF-31-son, «Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida» 2021 yil 24 dekabrda PQ-62-son, va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

⁵ 16.12.2021 yildagi "Axoli tomorqasida maxsulot etishtirishni moliyalashtirish mexanuzmlarini takomillashtirish to'g'risidagi PQ-54 qarori

⁶ 20.12.2021 yildagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son

⁷ 25.07.2022 yildagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175 farmoni

qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risidagi⁹ nizomni tasdiqlash haqida⁹, 11.05.2022 yildagi 252-son qarorlari kambag'l, iqtisodiy nochor axoli tomonidan taqdim qilinadigan loyihalarni moliyalashtirish tizimi asosi bo'ldi, kambag'allikni qisqartirish bo'yicha o'ziga xos institutsional asoslar yaratildi.

Axoli kambag'allikdan chiqarishda qishloq hududlarida joylashgan axoli tomorqalaridan samarali foydalanish maqsadida "Bir mahalla- bir mahsulot" dasturi asosida exportbop qishloq xo'jaligi maxsulotlari etishtirish uchun axoliga quyidagi moliyaviy xizmatlar ko'rsatila boshlandi

Adabiyotlar

1. BMT "Barqaror rivojlanish kafolatlari-2030" sammiti
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 21.02.2022 йилдаги 83-сон qarori
3. 01.09.2020 yildagi BMT xisoboti
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son
5. 16.12.2021 yildagi "Axoli tomorqasida maxsulot etishtirishni moliyalashtirish mexanuzmlarini takomillashtirish to'g'risidagi PQ-54 qarori
6. 20.12.2021 yildagi "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish va aholining daromad manbaini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-55-son
7. 25.07.2022 yildagi "O'zbekiston Respublikasi aholisini ijtimoiy himoya qilish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-175 farmoni
8. Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risidagi" nizomni tasdiqlash haqida qarori

⁸ Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi huzuridagi Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish agentligining Aholini tadbirkorlikka jalb qilish jamg'armasi mablag'lari hisobidan subsidiyalar ajratish tartibi to'g'risidagi" nizomni tasdiqlash haqida